

DRAMATIK DIALOGNING LINGVISTIK TABIATI VA STRUKTUR-SEMANTIK TASNIFI**Gulhida Ikromova,***FarDU katta o'qituvchisi,**filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada dramatik dialogning lingvistik tabiati hamda uning struktur-semantik tasnifi yoritiladi. Dialog nutqning asosiy birliklari sifatida stimullovchi va reaktiv replikalarning o'zaro bog'liqligi asosida tahlil qilinib, dialogik muloqotning semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari izohlanadi. Tadqiqotda dramatik dialogning kichik va kengaygan shakllari ajratilib, ular mikrodialog va makrodialog ko'rinishida tasniflanadi. Mikrodialog monoreplikali va polireplikali turlarga, makrodialog esa monoreplikali, polireplikali hamda supersintaktik butunlik bilan ifodalangan kengaygan replikali shakllarga bo'linib, ularning struktur modeli, kommunikativ vazifasi va sahnaviy nutqdagi roli dramatik matnlar misolida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: dramatik dialog, replika, stimullovchi replika, reaktiv replika, mikrodialog, makrodialog, monoreplikali dialog, polireplikali dialog, supersintaktik butunlik, dialogning struktur-semantik tasnifi, kommunikativ birlik, dramatik nutq.

Abstract. This article examines the linguistic nature of dramatic dialogue and its structural-semantic classification. Dialogue is analyzed on the basis of the interrelation between stimulus and reactive replicas as the main units of speech, and the semantic, syntactic, and pragmatic features of dialogic communication are explained. The study distinguishes between the minimal and extended forms of dramatic dialogue, classifying them as microdialogue and macrodialogue. Microdialogue is divided into monoreplicative and polyreplicative types, while macrodialogue includes monoreplicative, polyreplicative, and expanded forms expressed through supersyntactic unity. Their structural models, communicative functions, and roles in stage speech are analyzed using examples from dramatic texts.

Keywords: dramatic dialogue, replica, stimulus replica, reactive replica, microdialogue, macrodialogue, monoreplicative dialogue, polyreplicative dialogue, supersyntactic unity, structural-semantic classification of dialogue, communicative unit, dramatic speech.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвистическая природа драматического диалога и его структурно-семантическая классификация. Диалог анализируется на основе взаимосвязи стимулирующих и реактивных реплик как основных единиц речи, а также раскрываются семантические, синтаксические и прагматические особенности диалогического общения. В исследовании выделяются малые и развернутые формы драматического диалога, которые классифицируются как микродиалог и макродиалог. Микродиалог подразделяется на монорепликовый и полирепликовый типы, а макродиалог на монорепликовый, полирепликовый и расширенный тип, выраженный сверхфразовым единством. Их структурные модели, коммуникативные функции и роль в сценической речи анализируются на примерах драматических текстов.

Ключевые слова: драматический диалог, реплика, стимулирующая реплика, реактивная реплика, микродиалог, макродиалог, монорепликовый диалог, полирепликовый диалог, сверхфразовое единство, структурно-семантическая классификация диалога, коммуникативная единица, драматическая речь.

Kirish. Dialogning lingvistik tabiatini belgilashda ko'plab tadqiqotchilar, eng avvalo, ikki replikadan tashkil topgan minimal birliklarni, ya'ni stimullovchi hamda reaktiv replika juftligini asosiy dialogik birlik sifatida e'tirof etadilar. [1, 2, 3, 4] Shu bois dialogga ikki va undan ortiq replikadan tashkil topib, semantik-pragmatik va sintaktik jihatdan bog'langan yaxlit kommunikativ butunlik sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Dialogning leksik, grammatik, intonatsion va kommunikativ jihatlarini tadqiq etgan I.P.Svyatogor ushbu tadqiq yo‘nalishlari orasida aynan strukturaviy-grammatik mezonni yetakchi aspekt sifatida ajratib ko‘rsatadi. [2, 180] Replikalar stimullovchi va reaktiv replika kabi turlarga ajratiladi. Ko‘p holatda birinchi replika stimullovchi, ikkinchisi esa reaktiv replika sifatida namoyon bo‘ladi. Sababi, reaktiv replika suhbatni davom ettiruvchi qo‘shimcha ma‘lumot, savol yoki munosabatni o‘z ichiga oladi. Shu tariqa replikalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik dialogning uzluksizligi va tabiiy lingvistik oqimini ta‘minlab, uning mantiqiy rivojlanishini belgilab beradi. [2, 186]

Natijalar va muhokama. Dialog – ikki yoki undan ortiq ishtirokchi o‘rtasida replikalar almashinuvi orqali shakllanadigan nutq turidir. Dramatik dialog nafaqat lisoniy birliklar, balki sahna vaziyati, vaqt-makon va personajlar munosabati kabi ekstralingvistik omillar bilan ham belgilanadi. Shu bois uning struktural tasnifini yaratish murakkab bo‘lsa-da, dramatik dialogning asosiy turlarini ajratish mumkin.

1) mikrodialog;

2) makrodialog.

1. Mikrodialog – Mikrodialog – dialogning eng kichik, ikki qismdan iborat shakli bo‘lib, unda stimullovchi replika (S_r) tasdiq, inkor, so‘roq yoki rozilik mazmunidagi reaktiv replika (R_r) bilan juftlik hosil qiladi. Bunday tuzilma muloqot ritmini belgilab, personajlar o‘rtasidagi munosabatlarni ochib beradi hamda dramatik matnda sahnaviy keskinlik va dinamikaning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Mikrodialog modeli quyidagicha ifodalanadi:

$S_r + R_r =$ kommunikativ yakun

Masalan:

Qo‘chqor. Ho‘, tirikmisan?.. Yechib qo‘y darrov...

Qumri. Yo‘q, yecholmayman.

(Sharof Boshbekov. “Temir xotin”)

Misolda Qo‘chqorning “Ho‘, tirikmisan?.. Yechib qo‘y darrov...” bayoni ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi jumla so‘roq shaklida bo‘lsa-da, mazmunan holatni aniqlashga qaratilgan, ikkinchi jumla esa buyruq mazmunidagi stimullovchi replika hisoblanadi. Qumrining “Yo‘q, yecholmayman” javobi esa reaktiv replika bo‘lib, unda yo‘q so‘zi buyruqqa rad javobini, yecholmayman esa uning sababini bildiradi. Shu tariqa stimullovchi replika + reaktiv replika tuzilmasi mikrodialogning asosiy modelini hosil qilib, dramatik muloqotga xos tezlik va keskinlikni ta‘minlaydi.

Mikrodialoglar o‘z ichida struktur jihatdan monoreplikali mikrodialog hamda polireplikali mikrodialogga bo‘linadi:

1) monoreplikali mikrodialog – dialogning eng kichik birligi bo‘lib, u odatda ikki qisqa replikadan tashkil topadi. Birinchi replika, qoida tariqasida, savol, buyruq, taklif yoki murojaat shaklida stimullovchi bayonni ifodalab, ikkinchi replika esa tasdiq, inkor,

qisqa izoh yoki darhol bajarish mazmunidagi reaktiv javob bilan muloqotni yakunlaydi. Shu tarzda, monoreplikali mikrodialog ixcham tuzilishi orqali muloqot ritmini tezlashtirib, dramatik matndagi sahnaviy harakatning izchil davom etishiga xizmat qiladi. Ushbu dialog turining modeli quyidagicha:

$S_{r1} + R_{r1} = \text{kommunikativ yakun}$

Masalan:

O'tagan. Bu yerda nima qiladi?

Orol bobo. Bu yerda... mana, qayiq yasaydi!

(Erkin A'zam. "Tanho qayiq")

Ushbu misolda 1 stimullovchi va 1 reaktiv replikadan iborat monoreplikali mikrodialog namunasi berilgan bo'lib, dialogdagi lokal maqsad darhol ifodalanib, savol-javob shaklidagi mikrotuzilma yuzaga keladi. Stimullovchi replika axborot talabiga qaratilgan bo'lsa, reaktiv replika esa qisqa ma'lumot berish orqali juftlikni mantiqan yakunlaydi. Shu tariqa mikrodialog o'ziga xos sodda, ammo to'liq funksional tuzilma sifatida dialog ritmini tez va ravon davom ettiradi.

2) *polireplikali mikrodialog* – ikki ishtirokchi o'rtasidagi stimullovchi va reaktiv replika juftligidan tashkil topgan replika turi bo'lib, polireplikali mikrodialogda stimullovchi hamda reaktiv replika birdan ortiq predikatga ega sintaktik konstruksiyadan iborat bo'ladi. Ayni xususiyat tufayli polireplikali mikrodialog mazmun jihatdan to'yinganroq bo'lib, muloqot rivojini yo'naltiruvchi funksiyani bajaradi hamda dialogning ichki dinamikasini yanada ravon va izchil shakllantiradi.

$(S_{r1} + S_{r2} + \dots + S_{rn}) + (R_{r1} + R_{r2} + \dots + R_{rn}) = \text{kommunikativ yakun}$

Masalan:

Qalimbet. Hozir, hozir... (dastgoh ustidagi planshetni chiqarib) Mana, ko'ring...

Qani, toping-chi, manavi kim? (surat ko'rsatadi) Qarang, bu – Kamolingiz. Qandoq bo'lib ketibdi, voy-bo'-o'....

Orol bobo (qisqa javob): Kamolimmi? Voy-bo'-o', arslondek bo'lib ketibdi-ku!

(Erkin A'zam. "Tanho qayiq")

Ushbu parchada 6 stimullovchi va 2 reaktiv replika juftligidan iborat polireplikali mikrodialog keltirilgan. Qalimbetning kengaygan stimullovchi replikasi axborot berish, rag'batlantirish va faxrlanish kabi ma'nolarni ifodalab, bir nechta sintaktik birliklarni qamrab oladi. Orol boboning qisqa, ammo mazmunan to'yingan javobi tasdiq, hayrat va g'ururlanish ma'nolarini bildirib, mikrodialogning mantiqiy yakunini ta'minlaydi hamda sahnadagi emotsional fonni kuchaytiradi.

1. *Makrodialog* – bir mavzu yoki mazmun jihatdan yaqin mavzular atrofida ketma-ket bog'langan bir nechta qo'shaloq replikalardan tashkil topuvchi, yirik hajmli va kompozitsion tugallikka intiluvchi dialog bo'lagidir. Bunda har bir juftlikning ikkinchi bo'g'ini ko'pincha navbatdagi juftlikning birinchi bo'g'inini "chaqirib", o'zaro ko'prik hosil qiladi, natijada, muloqot zanjirsimon tarzda rivojlanib boradi. Mazkur jarayonda

muloqot mavzusi barqaror saqlanadi, konflikt esa bosqichma-bosqich kuchayib yoki aksincha susayib, murosaga olib keluvchi kommunikativ dinamikani yuzaga keltiradi.

$$(S_r + R_r) + (S_r + R_r) \rightarrow (S_r + R_r) \rightarrow \dots \rightarrow$$

Masalan:

Qalimbet. Keling, dunyo bo'ylab sayohat qilamiz: mana Arabiston, mana Ka'ba; bu – Hindiston, bu – Pokiston, mana – O'zbekiston; endi Orolni toping-chi... mana, mana!

Orol bobo. Shugina?.. Orol shumi?

Qalimbet. Sizga qolsa, butun dunyo – Orol, o'rtada bitta qayiq – yakka, tanho qayiq, unda – siz...

Orol bobo. Tur, jo'na!

(*Erkin A'zam. "Tanho qayiq"*)

Ushbu parchada makrodialogning izchil ko'rinishi berilgan bo'lib, replikalar bir mavzu atrofida zanjirsimon tarzda bog'lanib, sahnaviy harakatni rivojlantiradi. Qalimbetning "dunyo bo'ylab sayohat" tarzidagi obrazli nutqi dialogni boshlab, Orol boboni suhbatga jalb etadi. Orol boboning "Shugina?.. Orol shumi?" javobi esa birinchi juftlikni yakunlash bilan birga keyingi replika uchun ko'prik vazifasini bajaradi. Qalimbetning kengaygan javobi personajlar dunyoqarashi o'rtasidagi farqni ochib, dialogga emotsionallik kiritadi, Orol boboning "Tur, jo'na!" reaksiyasi esa muloqotni keskin yakunlab, sahnaning keyingi bosqichiga o'tishni ta'minlaydi. Shu tariqa parcha makrodialogga xos mavzu barqarorligi, zanjirsimon rivoj va konfliktning kuchayishini namoyon etadi.

Makrodialog ham struktur jihatdan o'z ichida 2 turga bo'linadi:

1) *monoreplikali makrodialog* – bir mavzu atrofida shakllangan, birdan ortiq bir predikatli sintaktik konstruksiya bilan ifodalangan replikalar juftligi bo'lib, bunda har bir juftlikning reaktiv bo'g'ini odatda keyingi juftlikning stimullovchi bo'g'inining shakllanishiga sabab bo'ladi hamda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi dialogik muloqot uzluksiz davom etadi. Replikalar juftligining sintaktik jihatdan bir predikatli sodda gaplar bilan ifodalanishi dialog ritmini tezlashtirib, muloqotning ravon, izchil va mazmunan zich rivojlanishini ta'minlaydi.

$$(S_{r1} + R_{r1}) + (S_{r1} + R_{r1}) + (S_r + R_r) \rightarrow \dots \rightarrow$$

Masalan: *Qumri (arazli). Nima qilasiz?*

Qo'chqor. Qo'yvoraman!

Qumri (xo'rliqi kelib). Nima?..

Qo'chqor. Pattangni qo'lingga tutqazaman!

(*Sharof Boshbekov. "Temir xotin"*)

Ushbu dialog bir mavzu atrofida rivojlangan monoreplikali makrodialog bo'lib, bir predikatli sintaktik konstruksiyalardan tashkil topgan. "Nima qilasiz?" stimullovchi replikasi muloqotni boshlab, "Qo'yvoraman" reaktiv javobini yuzaga keltiradi va uning mazmuni navbatdagi "Nima?" stimullovchi replikasiga turtki beradi. "Pattangni

qo'lingga tutqazaman" javobi esa dialogga kuchli semantik yuk berib, ziddiyatni kuchaytiradi. Shu tariqa har bir reaktiv replika keyingi stimullovchi replikani yuzaga keltirib, dialogning uzluksizligini ta'minlaydi. Qisqa, bir predikatli gaplar esa dialog ritmini tezlashtirib, sahnadagi taranglikni kuchaytiradi.

2) *polireplikali makrodialog* – Bir mavzu atrofida shakllangan, stimullovchi va reaktiv replikalari bir necha gaplardan iborat bo'lgan yirik dialog parchasidir. Bunda har bir reaktiv replika keyingi stimullovchi replikaga turtki berib, dialog rivojini ta'minlaydi. Kengaygan replikalar muloqotning semantik markazini kuchaytirib, personajlar o'rtasidagi munosabat va ichki ruhiy holatni chuqurroq yoritadi.

$$(S_{r1} + S_{r2} + \dots + S_{rn}) + (R_{r1} + R_{r2} + \dots + R_{rn}) \rightarrow (S_{r1} + S_{r2} + \dots + S_{rn}) + (R_{r1} + R_{r2} + \dots + R_{rn}) \rightarrow \dots \rightarrow$$

Masalan: *Olimjon. E-e, Qo'chqor aka, assalomu alaykum! Mana, tag'in keldik-da. (Ko'rishmoqchi bo'lib qo'l cho'zadi.) Iye?.. Kim bunaqa qildi?*

Qo'chqor. Kim bo'lardi! Bunaqa bema'ni narsa faqat bizning xotindan chiqadi!

Olimjon. E-e, chatog' bo'пти-ku... Ketib qoldilar, deng? Attang... Nega bog'ladilar?

Qo'chqor. E, qaqqayib turaverasizmi, avval qo'lni yechsangiz-chi!

(Sharof Boshbekov. "Temir xotin")

Quyidagi parchada dialog Qo'chqorning qo'li bog'lab qo'yilgani mavzusi atrofida rivojlanib, stimullovchi va reaktiv replikalar bir nechta sodda gaplardan tashkil topadi. Olimjonning stimullovchi replikasi salomlashuv, hol-ahvol so'rash va vaziyatga munosabat bildirish orqali dialogni boshlaydi hamda muloqotning semantik markazini belgilaydi. Qo'chqorning javobi esa reaktiv replika sifatida hodisaning sababini bildirib, keyingi stimullovchi replikaga turtki beradi. Olimjonning navbatdagi savoli dialogni davom ettirsa, Qo'chqorning "E, qaqqayib turaverasizmi, avval qo'lni yechsangiz-chi!" tarzidagi javobi tanbeh va iltimos ma'nolarini ifodalab, muloqotning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

2. *Supersintaktik butunlik bilan ifodalangan kengaygan replikali makrodialog* – umumiy kommunikativ mavzu atrofida rivojlanadigan, o'zaro semantik, sintaktik va pragmatik jihatdan bog'langan bir nechta stimullovchi hamda reaktiv replika juftliklaridan tashkil topgan yirik dialog turidir. Bunda replikalardan biri yoki har ikkalasi bir nechta gaplardan iborat bo'lib, yagona mazmuniy markazga bo'ysunuvchi supersintaktik butunlikni hosil qiladi. Shu sababli bunday dialogda izohlash, aniqlashtirish, munosabat bildirish va dalillash kabi nutqiy harakatlar keng namoyon bo'ladi.

$$S_{r(ssb)} + R_{r(ssb)}$$

Masalan: *Mahmudiy. (Parvo ilmay gapida davom etadi). Shunday qilib, inson miyasining imkoniyatlari cheku-chegarasiz. Uning o'ndan to'qqiz qismi umr bo'yi ishga tush-masdan qolib ketadi. Men oldinga surayotgan fikrning qisqacha mazmuni shu: inson tug'ilishidan qobiliyatsiz bo'lmaydi. Faqat muayyan sharoitda bosh miyaning ma'lum*

nuqtalari harakatsiz qoladi. Balki sen Stanislavskiy, Nemirovich-Danchenkodursan, balki Nyuton, balki Arximeddirsan. Endi senga bitta sir aytaman – sen shu aytganlarimning hammasidan. Sen Aflotun ham Arastusan, sening qaeringdadir Iskandar Zulqarnayn uxlab yotibdi. Sen Sa'diy va Gyotesan, Ulug'beksan, Leonardo da Vinchisan. Ha-ha, do'stim. Hayron bo'lma. Odiljon. Leonardo da Vinchi deganing ancha haqiqatga yaqin. Maktabning devoriy gazetasiga hamma suvratni o'zim ishlardim. Eslaydimi, Mamayusuf dangasani rosa boplab chizgan edim. Ha, mendan Arximed chiqmasa ham, Leonardo da Vinchi chiqishi mumkin edi.

Mahmudiy. Ha, do'stim Odiljon, shunday vaqtlar keladiki, psixologiya ilmi inson qobiliyatlarini to'la, mukammal ochib tashlaydi. Bosh miyadagi milliard chiroqlarning qaysi biri ko'proq kuchlanishni ko'tara oladi, qaysi biri porlab yonishga quvvati yetadi – ilm ravshan aniqlab beradi. Shunda tug'ilgan go'dak faylasuf bo'ladimi, tosh ko'taradigan polvon bo'ladimi – tug'ilish guvohnomasiga qo'shib yozib beriladi.

(Erkin Vohidov. "Ikkinchi tumor")

Yuqoridagi misolda Mahmudiy va Odiljon replikalari oddiy savol-javob shaklidan kengayib, bir nechta mustaqil gaplar orqali yagona mazmuniy markaz atrofida rivojlanadi. Dialogning asosiy mavzusi inson aqliy salohiyati va tug'ma imkoniyatlarning ro'yobga chiqishi g'oyasidir. Mahmudiy nutqi bir nechta mantiqan bog'langan gaplar orqali ifodalanib, inson miyasi imkoniyatlari va tarixiy shaxslar bilan qiyoslash kabi dalillarni keltiradi, shu bois u supersintaktik butunlik darajasida namoyon bo'ladi. Odiljonning javobi esa ushbu fikrni qisman qo'llab-quvvatlab, dialogni yangi semantik bosqichga olib chiqadi. Natijada replikalar o'rtasidagi semantik uzviylik va sintaktik kenglik dialogni supersintaktik butunlik bilan ifodalangan kengaygan replikali makrodialog sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa. Ko'rinadiki, dramatik dialog stimullovchi va reaktiv replikalar o'rtasidagi semantik, sintaktik hamda pragmatik bog'liqlik asosida shakllanuvchi murakkab kommunikativ tizimdir. Mikrodialog va makrodialog, ularning monoreplikali va polireplikali turlari hamda pauza va remarkalar bilan kengaygan shakllari dramatik matnda dialog ritmi, sahnaviy dinamika va konflikt rivojini belgilovchi muhim vosita hisoblanadi. Dialogning struktur tasnifi replikalar soni, sintaktik tuzilishi va o'zaro bog'lanish mexanizmlariga tayangan holda dramatik muloqotning zanjirsimon rivoji, mavzu barqarorligi va kompozitsion yaxlitligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Святогор И. П. Типы диалогических реплик в современном русском языке. – М.: Наука, 1967.
2. Шведова Н. Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи. – М.: Наука, 1960.
3. Попова И. А. Неполные предложения в современном русском языке // Труды Института языкознания АН СССР. – М., 1953. – Т. 2.
4. Святогор И. П. Типы диалогических реплик в современном русском языке. – М.: Наука, 1967.